



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 22-iyul

VI-103-90-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rribosari U.Murtazayevning hisoboti haqida

Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rribosari U.Murtazayevning hisobotini tinglab, va yuqorida bayon etilganlarga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 103-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rribosari – jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i U.Murtazayevning "Tumanda 2024 yilning 6 oy davomida jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlar, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar bilan hamkorlikda amalgaloshirilgan ishlar to'g'risida"gi hisoboti tinglangan deb hisoblansin va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Ichki ishlar bo'limi (A.Ochilov)ga tuman hududida jinoyatchilik oshib borganligi ko'rsatilib, uni kelgusida oldini olish va bartaraf etish borasida quyidagi vazifalar:

-jamoat tartibini osoyishta saqlanishini tashkil etishda, aholi gavjum joy va hududlarda ilg'or zamonaviy texnologiyalar qo'llash va tadbiq etish;

-ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyatini ta'minlash, profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish va ularni qayta huquqbazarlikni sodir etganda javobgarlik kuchaytirilganligi to'g'risida tushuntirishlar olib borish;

-mahalla profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlarni jadallashtirish;

-profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagilarning shaxslarni o'rganish va ularni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

3.O'zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (I.Nurmuradov) mahalla yettiligi mas'ullari "Kattaming" va "Meylixuja" mahallalari "qizil" toifadagi mahallalar mansubligi yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqsin.

4. Tuman hokimi o'rribosari, oila va xotin-qizlar bo'limi (S.Djumayeva) "Kattako'rpa" mahallasida firibgarlik, "Go'zal" mahallasida odam savdosi, "Fayzikent" mahallasida tan jarohati yetkazish jinoyatlari sodir etilganligi yuzasidan mahalla yettiligi mas'ullari bilan xotin-qizlar bandligini ta'minlash va targ'ibot tadbirlari olib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev), yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.G'ulomov) va tuman hokimining o'rinnbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN
XOLIKULOVICH